



THE CONCEPT OF LIFESTYLE AND ITS SOCIO- PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Samandar G'ayratovich Nurmatov

Lecturer, Qashqadaryo Regional Pedagogical Excellence Center
Qashqadaryo, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: lifestyle, national values, ethnocultural phenomenon, ethnogenesis, sociodynamics.

Received: 08.08.25

Accepted: 09.08.25

Published: 10.08.25

Abstract: This article explores the concept of lifestyle, its genesis, and its influence on ethnocultural life, as well as the essence and content of lifestyle. It is well known that in the lifestyle of any ethnic community, one can find the reflection of the spiritual and material wealth created over centuries, the surrounding environment, visions and perceptions of the future, national-ethnic characteristics, mentality, customs, traditions, and ways of life. Lifestyle represents the totality of lived experiences shaped in the course of the socio-historical development of a people, nation, or ethnic group. Furthermore, the article discusses the scholarly approaches of Eastern and Western researchers to the study of lifestyle, analyzes the essence and content of the national lifestyle, and examines the transformations currently taking place within it.

TURMUSH TARZI TUSHUNCHASI, UNING IJTIMOIIY –FALSAFIY TAHLILI

Samandar G'ayratovich Nurmatov

Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi o'qituvchisi

Samandar200290@gmail.com

Qashqadaryo, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: turmush tarzi, milliy qadriyatlar, etnomadaniy hodisa, etnogenezis, sotsiodinamika.

Annotatsiya: Mazkur maqolada turmush tarzi tushunchasi, uning genezisi, etnomadaniy hayotga ta'siri, turmush tarzining mohiyati, mazmuni ochib berilgan. Ma'lumki, har qanday etnik birlikning turmush tarzida xalqning uzoq davrlar davomida yaratgan ma'naviy va moddiy boyliklari, o'zini qurshab turgan muhit va kelajak haqidagi tasavvurlari,

qarashlari, milliy etnik belgilari, mentaliteti, urf-odatlar, an'ana-yu yashash tarzi o'z ifodasini topadi. Turmush tarzi xalq, millat, etnosning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllantirilgan hayot kechmishlari majmuidir. Shuningdek, maqolada turmush tarzi mavzusida sharq va g'arb olimlarining ilmiy yondashuvlari haqida ham fikr yuritiladi, milliy turmush tarzining mohiyati, mazmuni, bugungi kunda turmush tarzida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tahlil qilinadi.

ПОНЯТИЕ ОБРАЗА ЖИЗНИ И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Samandar G'ayratovich Nurmatov

Преподаватель

Кашкадарьинского областного центра педагогического мастерства

Кашкадарья, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: образ жизни, национальные ценности, этнокультурное явление, этногенез, социодинамика.

Аннотация: В данной статье раскрываются понятие образа жизни, его генезис, влияние на этнокультурную жизнь, а также сущность и содержание образа жизни. Известно, что в образе жизни любого этнического сообщества отражаются духовные и материальные ценности, созданные народом на протяжении длительных исторических периодов, окружающая среда, представления о будущем, взгляды, национально-этнические особенности, менталитет, обычаи, традиции и уклад жизни. Образ жизни представляет собой совокупность жизненного опыта народа, нации, этноса, сформированного в процессе их социально-исторического развития. Кроме того, в статье рассматриваются научные подходы восточных и западных исследователей к проблематике образа жизни, анализируются сущность и содержание национального образа жизни, а также изменения, происходящие в нем в современную эпоху.

Kirish

Bugungi kunda insoniyat jamiyati hayotini o'zida ifoda etuvchi turli tuman voqea va hodisalar keng qamrovli, polifunksional, yuksalish va tez o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lganligi bois ularni ilmiy tadqiq etish, ularni turmush tarzining obekti sifatida o'rganish o'ta

muhim ahamiyatga egadir. Zero jamiyat hayotining o'zgaruvchanlik xususiyatlari, uning ichki va tashqi aloqalari, o'tmishda va kelajakda namoyon bo'lishi, boshqa ijtimoiy jarayonlar, voqealar va hodisalar bilan nafaqat o'zaro aloqada bo'lishi, shuningdek, insoniyatni tang ahvolga soluvchi turli tuman voqealar hamda jarayonlarni ergashtirib kelishiga ta'siri kabi tomonlari, hech bo'lmaganda u to'g'risida xayoliy tasavvur va taxmin qilishni, agar iloji bo'lsa ularni oldindan ko'ra bilishni talab etadi. Mazkur muammo, eng avvalo ijtimoiy jarayonlarning nafaqat mazmun-mohiyatini, shuningdek ularning kishilarning turmush tarziga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlash va unga ilk ta'rif berishni taqozo etadi.

Ma'lumki, turmush tarzi inson hayoti va insoniyat mavjudligining, borlig'ining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Zero, turmush tarziga insoniyatni boshqa mavjudotlardan farqlantirib turadi. Shu boisdan ham turmush tarzi inson hayotining, insoniyat mavjudligining belgisi sifatida qadim-qadimdan, kishilik jamiyati bilan birga mavjuddir.

Adabiyotlar tahlili

Turmush tarzi masalasini o'rganish va tadqiq etish o'tgan asrning 60- 70 yillarida boshlanganligini ko'rsatadi.

Masalan, rus faylasufi V.Tolstix (1929-2019) turmush tarzini shaxs va ijtimoiy munosabatlarni, jamiyat o'rtasidagi aloqalarni, dialektik bog'liqni ifoda etuvchi hodisa sifatida qarashni ilgari suradi. Uning fikriga ko'ra, turmush tarzi eng avvalo shaxs, to'g'rirog'i, ijtimoiy shaxs hayotini ifodalovchi ijtimoiy-falsafiy tushunchadir [1].

Faylasufning mazkur tadqiqotidan so'ng turmush tarzini ijtimoiy-falsafiy kategoriya va hodisa sifatida qarash tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga jalb eta boshladi. Natijada mazkur masalaga oid turli xil ilmiy-nazariy konsepsiyalar va fan sifatida o'rganish to'g'risidagi yondashuvlar vujudga kela bordi.

Boshqa bir rus faylasufi I. Nikolayev turmush tarzini ijtimoiy-siyosiy hayot, shaxs faoliyati va hayotining "yetuklik belgisi", ko'rsatkichi sifatida qarash g'oyasini ilgari surdi. Mazkur yondashuv ta'sirida mehnat jamoalaridagi ijtimoiy-siyosiy faollikni ham turmush tarzi sifatida qarash g'oyalari ilgari surila boshlandi. [2].

Turmush tarzi masalasiga bunday yondashuv mazkur masalani ijtimoiy-siyosiy tuzum maqsadlariga muvofiq talqin etish ko'zga tashlanadi.

Xorijiy tadqiqotchilar turmush tarzini "turmush darajasi", "turmush sifati", "hayot sifati" kabi ijtimoiy-falsafiy ekzistensial (mavjudlik) kategoriyalar orqali o'rganishga intilishga harakat qilishgan bo'lsa, o'sha davrdagi sovet olimlari turmush tarzini "sotsialistik turmush tarzi" deb atadilar va unga ijtimoiy-siyosiy ruh kiritdilar.

Taniqli sotsiolog I. V. Bestujev-Lada (1927-2015) turmush tarziga sotsiologik yondashuvni keng miqyosda amalga oshirdi va bu borada ko'p asarlar chop ettirdi. U o'zining mavzuga oid ilk

maqolasidayoq turmush tarzini o'ziga xos bo'lgan inson hayoti, shaxsi, yashash muhiti, oilasi, madaniy qiziqishlari bilan bog'liq ijtimoiy-falsafiy hodisa, kategoriya sifatida qarash zarurligini ta'kidlaydi [3]. U turmush tarzida ijtimoiy-siyosiy tuzum ta'siri borligini inkor etmagan, shu boisdan sotsialistik turmush tarzi kapitalistik turmush tarzidan eng avvalo g'oyaviy, ma'naviy va madaniy yo'naltirilgani bilan farq qilishini ko'rsatib o'tadi.

Turmush tarziga ijtimoiy-iqtisodiy yondashish o'zining obektiv asosiga ega. Buni mutlaq inkor etish mumkin emas, aks holda inson hayotini moddiy asosga qurilganini, inson munosabatlarining turmush tarzining shakllanishiga ta'sirini rad qilgan bo'lamiz. Biroq ijtimoiy-iqtisodiy omillar turmush tarzining yagona asosi emas. Inson, shaxs turmush kechirish jarayonida shaxsiy, oilaviy, fuqaroviy-huquqiy, ma'naviy-ruhiy, madaniy, hatto xalqaro aloqalarga ham duch keladiki, ushbu omillar real ijtimoiy borliq, hayotiy muammolar va boshqa rang-barang subektiv ta'sirlarni ham hisobga olishni taqozo etadi.

Turmush tarziga inson hayotiy faoliyatining in'ikosi, turmush tarzi komponentlariga esa shaxs ijtimoiy, siyosiy va madaniy faolligi natijasi sifatida qarash o'tgan asrning 70-80 yillardagi tadqiqotlarda keng qo'llab-quvvatlandi. Mazkur izlanishlar ikki jihatdan ilmiy ahamiyatga ega bo'ldi:

Birinchisi, inson faoliyatini ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, dunyoni o'zgartirish, inson bilan jamiyatni uzviy bog'langan tizim, universum taraqqiyotining sharti sifatida qarashga undadi. Jamiyat taraqqiyoti kelajak taqdiri uchun ma'suliyat inson (shaxs) ga yuklandi; endi u nafaqat o'zi, o'zining faoliyati va farzandlari taqdiri, shu bilan birga butun jamiyat, insoniyat kelajagi uchun ham javobgarlikni o'z ustiga olishi darkor. Kelajak avlodlar qanday qadriyatlarni o'ziga dastur amal qilib oladi, qanday normalarga tayanadi va qanday turmush kechiradi ularning barchasi insonga, uning mavjud hayot tarzini o'zgartirishiga bog'liqdir.

Ikkinchisi, turmush tarzi o'zgarmaydigan, jamiyat va kishilar hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlardan tashqarida turadigan, shaxsni o'zining ichki tartiblari va an'analariga band etadigan, qotgan narsa emas. U jamiyat, shaxs bilan birga, ularning ta'sirida o'zgaradi hamda o'zi ham jamiyat va shaxsga ta'sir etadi.

Turmush tarzining ijtimoiy-falsafiy masalasi respublikamiz olimlarining ham diqqat markazida turgan asosiy masala hisoblanadi. Mustaqillik yillarida T. U. Abdullaev, D. A. Rahimboyeva, A. Eshto'xtarov, O'.Tongtemirov, T. D. Saakova, M. D. Rajapova, N. Saidov, Z. U. Ismoilovlar turmush tarzi masalasi yuzasidan maxsus tadqiqot olib borganlar.

A. M. Yunusov esa o'zbek ijtimoiy falsafasiga birinchi bo'lib "milliy turmush tarzi" kategoriyasini olib kiradi. U boshqa tadqiqotchilardan farqli o'laroq, turmush tarzi negizidagi milliylik va baynalminallik yotishini, tadqiqotchilar turmush tarzini o'rganayotganida uning ushbu ikki tomonidan kelib chiqishi zarurligini ta'kidlaydi [4].

Z. U. Ismoilova O'zbekiston mustaqilligi sharoitida qishloq turmush tarzi yangilanishining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillarini tadqiq etishga o'z diqqatini qaratgan. U ijtimoiy—siyosiy va ma'naviy omillarni o'rganar ekan, qishloq turmush tarzida milliy an'analar, urf-odatlar, bayramlarning ahamiyati, o'rni oshib borayotganini ochib beradi [5].

Tahlillar va natijalar

Ma'lumki, turmush tarzini shaxs millat hayoti va ijtimoiy hayotning bir-biriga dialektik ta'sirisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shaxs va millatning turmush tarzini va hayotiy faoliyatini ijtimoiy tuzum, rang-barang ehtiyojlarga, ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga qurilgan munosabatlar belgilab beradi. O'z navbatida ijtimoiy munosabatlar ham shaxs, millat turmush tarzining, hayotiy faoliyatining ifodasidir. U har bir shaxs, millat hayotining alohida-alohida holdagi ifodasi emas, balki ularning uyg'unlashgan, o'ziga xos ifodasidir. Ammo turmush tarzi tadqiqotchidan shaxs, millat hayoti, turmush tarzi bilan ijtimoiy hayot, milliy turmush tarzlari o'rtasidagi aloqadorlik va tafovutlarni aniqlab olishni taqozo etadi, aks holda u turmush tarzini mavxum, real hayotdan ayricha kechadigan voqelik sifatida tahlil qilishga majbur bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, ushbu dialektik aloqadorlik va tafovutlar quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, shaxs, millat turmush tarzi ham, ijtimoiy hayot tarzi ham inson va jamiyatning uzviy bog'liqligidan kelib chiqqani bois ular o'rtasida substansional (o'zaro) o'xshashlik, yaqinlik mavjuddir. Gnoseologik nuqtai nazardan ijtimoiy hayot tarzini shaxslar, kishilar turmush tarzining davomi, ong bilan idrok etiladigan va umumlashtiriladigan ko'rinishi sifatida qarash esa ular o'rtasidagi dialektik aloqadorlikning belgisidir. Ushbu belgi inson hayot tarzining mohiyatidan kelib chiqadi.

Ikkinchidan, shaxs, millat turmush tarzi bilan ijtimoiy hayot tarzi ma'lum bir ijtimoiy-tarixiy va etnomadaniy makonda kechgani bois ular jamiyatning obektiv qonunlariga bo'ysunadilar. Bu qonunlar kishilarning olamni idrok etish, dunyoni o'zgartirish jarayonida shakllangan, shuning uchun inson faoliyati, idroki va erki turmush tarzini shakllantiruvchi permanent (uzluksiz, doimiy) omillar hisoblanadi. Shaxs, millat turmush tarzi bilan ijtimoiy hayot o'rtasidagi dialektik bog'liqlik ana shu uzluksiz omillarning rolini obektiv baholashni, ulardagi yaratuvchanlikdan yanada samarali foydalanish yo'llarini izlashni taqozo etadi.

Uchinchidan, shaxs, millat turmush tarzi ijtimoiy hayotga ko'pincha bilvosita ta'sir etadi. Masalan, oilada shakllangan diniy yoki ma'naviy urf-odatlar ma'lum bir ijtimoiy, axloqiy, hatto huquqiy me'yorlar orqali jamiyat hayotiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Agar urf-odatlar jamiyatda hukmron me'yorlarga qarshi yoki zid kelsa, ular oila doirasidagina qolib ketadi.

To'rtinchidan, shaxs va millatning turmush tarzi individlarning xohish, ehtiyoj va istaklarini qondirishga xizmat qilib, ularni ifoda etadi va shaxslarning to'laqonli hayot kechirishini

ta'minlaydi. Mabodo turmush tarzi ushbu talablarga javob bermasa, turmush tarzi bilan shaxs o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi va oxir natijada, inson hayotining o'zi xavf ostida qolishi mumkin. Buni fransuz filosofi va yozuvchisi A. Kamyu (1913-1960) o'zining "Isyonkor odam" asarida "be'manilik", "absurd" deb atagan.

Beshinchidan, shaxs, millat turmush tarzi bilan ijtimoiy hayot aynan emas, ular o'rtasida farqlar, tafovutlar mudom saqlanib qoladi. Gap shundaki, shaxs turmush tarzi individning yashash usulini ifodalaydi, ijtimoiy hayot esa jamiyat hayotining belgisidir. Agar jamiyatda barcha kishilar e'tirof etgan, tan olgan va amal qiladigan normalar mavjud bo'lsa, tafovut va farqlar voqealarning o'ziga xos ichki xususiyati bo'lib, ijtimoiy turmushni rang-baranglashishiga xizmat qiladi; mabodo shunday me'yorlar bo'lmasa, kishilar o'rtasida aloqalar o'zaro hamkorlikka emas, ochiq kurashga, yovlashishga qurilgan bo'lsa, tafovut va farqlar jamiyatni yemirilishga olib keladi. Shuning uchun biz shaxs, millat turmush tarzi bilan ijtimoiy hayot o'rtasida tafovut va farqlarni izlashdan ko'ra, ularni uyg'unlashtiruvchi, jamiyatdagi o'zaro kelishuv, fikrlar xilma-xilligi, hamkorlik, tenglik qaror topishiga xizmat qiluvchi omillarni izlash zarur.

Oltinchidan, turmush tarzi bilan hayotiy shart-sharoitlar o'rtasida bog'liqlik va tafovut shaxs turmush tarzi va ijtimoiy hayot, muhit bog'liqligiga ta'sir etadi. Masalan, bozor munosabatlari sharoitida har kim o'z kuchi, ishbilarmonligi va mehnatiga yarasha kun ko'rishi, o'zining turmush tarzini tashkil etishi zarur bo'lsa, ba'zi kishilar osongina, ko'pincha g'ayriqonuniy yo'llar bilan pul topishga intiladilar. Ularning turmush tarzi ijtimoiy hayot normalariga ziddir. Demak, shaxs turmush tarzining ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi bilvosita bo'lib, u shaxs ma'naviy-axloqiy xislatlarining ta'sirida paydo bo'ladi.

Xulosa

Milliy turmush tarzi o'ziga xos tarixiy-madaniy hodisa bo'lib, unda har bir xalq, millat, etnosning o'ziga xos xususiyatlari, uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida yaratgan qadriyatlari, an'analari, yashash tarzi, boshqa xalqlar bilan integratsion aloqalari jarayonida o'zlashtirgan boyliklari, atrof-muhit, dunyo va kelajak haqidagi qarashlari mujassamlashgan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingina milliy, shu jumladan, o'zbekona turmush tarzining etnogenezisini, mavjud muammolarini, taraqqiyot yo'llari va xususiyatlarini o'rganish imkoni tug'ildi.

Milliy turmush tarzini o'rganish: birinchidan, turmush tarzining ijtimoiy o'zgaruvchanlik va etnogenetik xususiyatlarini; ikkinchidan, o'zbekona turmush tarzida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni; uchinchidan, milliy turmush tarzining ichki belgilarini, uning milliy, tarixiy-madaniy qadriyatlarni rivojlantirishdagi o'rnini; to'rtinchidan, milliy g'oyamizning milliy turmush

tarzini qayta tiklashdagi funksional jihatlarini; beshinchidan, ma'naviy-madaniy omillarning turmush tarziga va u orqali shaxs kamolotiga ta'sirini tadqiq etishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Толстых В. Образ жизни как социально-философская категория. // Вопросы философии. – 1972. – №12. – С. 48–51.
2. Николаев И. Образ жизни как социальная категория. // Политическое самообразование, 1974. №7. – С. 41–42.
3. Бестужев-Лада И. В. Образ жизни как философско-социологическая категория. // Слово лектора. – 1975. – №3. – С. 14–19.
4. А. М. Yunusov (Sovet kishisining umumilliy iftixori, sovet turmush tarzining xarakterli xususiyatidir// Sotsialistik turmush tarzi va shaxs kamoloti.-T.:Fan, 1978 -34 b.
5. Ismoilova Z. U. O'zbekiston mustaqillik sharoitida, qishloq turmush tarzi yangilanishining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillari, Falsafa fan. nom. diss. avtoreferati.-T.:1999.—6-7 b.